

**PEPINO O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISH TARTIBI VA
DORIVORLIK XUSUSIYATLARI**

Jahbaraliyev Qudratillo Raxmatillo o‘g‘li

Saksonboyeva Mushtariy Lochinbek qizi

To‘xtasinova Rayxongul Avazbek qizi

Bekmirzayeva Gulxayo Mirzohodjon qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabalari

Anotatsiya. Maqolada pepino o‘simligini kelib chiqishi, yashash sharoyiti, tarqalishi, marfalogiyasi hamda anatomiyasi va shuni ham ta’kidlab o‘tishimiz kerakki dorivor o‘simlik bo‘lganligi sababli jahon miqyosida juda katta e’tiborga ega o‘simliklar ekanligi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Pepino o‘simligi, ituzumdoshlar oilasi, guli, meva, urug‘, ko‘chat, barg. Botanik nomi. *Solanum muricatum* ituzumdoshlar (*Solanaceae*) oilasiga mansubdir.

Geografik tarqalishi. Yovvoyi holda Janubiy Amerikada o‘sadi. Janubiy Amerika, AQSh, Peru, Chili, Yangi Zelandiya, Yevropa va Rossiyada keng tarqalgan.

Biologiyasi. Pepino o‘simligi urug‘lari +26+28°C da 7-8 kunda unadi, katta yoshdagi o‘simliklarni maqbul o‘sib-rivojlanshi uchun +20+25°C harorat zarur bo‘ladi. Katta yoshdagi o‘simliklari +3°C da o‘sishdan to‘xtaydi yoki -5°C haroratda (barg va poya) nobud bo‘ladi.

Pepino 1-1,5 m balandlikda shoxlangan yarim yog‘ochli butasimon ko‘p yillik o‘simlik hisoblanadi. Barglari doimiy yashil rangda. Yangi sabzavot ekinining gullari kartoshkaga, ildiz va barglari qalampirga o‘xshash.

Pepino mevasining rangi va ta’mi qovun, bodring va qovoqqa o‘xshash. Meva hajmi, shakli, rangi va sifati bilan bir-biridan farq qilib, vazni 180-400 g (qovunga o‘xshash), po‘sti sarg‘ish-yashil tusda rangli bo‘lib, binafsha oraliq chiziqlar bilan belgilanadi. Pepinning markaziy qismida, qovun kabi, urug‘lari bor. Pishganda meva eti sariq yoki rangsiz bo‘ladi. Hosildorligi 1 kg/m². Ko‘paytirish usuli. Urug‘ va yashil qalamchalardan etishtiriladi.

Xususiyatlari va qo‘llanilish sohasi. Pepino o‘simligining iste’mol qilinadigan qismi bu rezavor-mevasidir. Mevalari shirin va nordon ta’mli, tarkibidan 92% suv mavjud. Pepino pektin moddalarga, organik kislotalarga, kletchatkaga, temir moddasiga, PP, A, K, C va V guruhiga kiruvchi vitaminlarga boydir. Meva tarkibida yod miqdori ancha ko‘pligi sababli, qalqonsimon bez kasalligi bor insonlarga iste’mol qilish tavsiya etiladi. Pepino kaliy moddasini katta miqdorda tarkibida saqlaganligi uchun u yurak va qontomir kasalliklarini oldini olish, shuningdek, qon bosimini

kamaytirish uchun samarali hisoblanadi.

An'anaviy tibbiyotda, pepino teri kasalliklari, bronxit va boshqa nafas yo'li infeksiyalarini davolash uchun ishlatiladi. Pepino ayniqsa diabet, osteoporoz, revmatizm va gemofiliya uchun foydalidir.

Past kislotaliligi tufayli pepino oshqozon-ichak kasalliklari bo'lgan odamlar tomonidan iste'mol qilinishi mumkin. 100 g mevada 80 kkal mavjud.

Respublikamizda pepino ekini maxsulotlaridan oziq-ovqat sanoati, qayta ishlash va tabobat sohalarida foydalanish mumkin. Xususan: oziq-ovqat sanoatida – pepinoni mevalari past kislotaliligi uchun jigar, buyrak va oshqozon-ichak traktida turli funksional kasalliklar mavjud bo'lganda ham mevalarni iste'mol qilish mumkin;

tabobatda – pepino immunitetni oshirish, tanani minerallar va vitaminlar bilan boyitishga yordam beradigan qimmatli parhez mahsuloti sifatida homilador ayollar va bolalar ratsioniga kiritilishi tavsiya etiladi. Pepino qalqonsimon bez faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u katta miqdorda yodni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq tabobatida yo'tal davolashda pepino mevasi kuchli antiseptik sifatida foydalaniladi. 1 ga ekin maydonida urug' hajmi va qiymati. Urug' sarfi 6 kg yoki 47 ming dona yashil qalamcha (yashil qalamcha katta yoshdagi o'simliklardan tayyorlanadi).

Parvarishlash. Pepino ekini urug' idan va qalamchasidan ekiladi. Urug' idan ekish uchun ko'chat tayyorlanadi. Yoshi 40-45 kunlik pepino ko'chati aprelning II-III o'n kunligida hamda mayning I-II o'n kunligida ekiladi. Ekish sxemasi 70×25-30 sm. Ekilgandan keyin ko'chatlarni albatta sug'orish zarur.

Pepino ko'chati 2 marta oziqlantiriladi, birinchi marta ko'chat 4-5 ta barg chiqarganda 10 l suvga 40 g fosfor, 35-40 g kaliy, 10-15 g azot solinib eritiladi va leykada ko'chat ustiga to'ydirib sepiladi. So'ngra ustidan toza suv sepib yuviladi. Ikkinchi marta oziqlantirish 12-14 kundan so'ng o'tkazilib, o'g'itlar miqdori biroz ko'proq olinadi.

Ekilgan ko'chatlar o'suv davrining dastlabki kunlarida tuproq tarkibi, er osti suvining chuqurligiga muvofiqhar 1 gektar maydon hisobiga 600-700 m³ me'yorda 8-10 kun oralatib, keyin hosili tugishi davrida 5-8 kun oralatib, butun o'suv davri davomida 14-16 marotaba sug'oriladi. Birinchi sug'orish quyosh botgandan so'ng yarim soatdan keyin va quyosh chiqishiga 1-1,5 soat qolganda amalga oshiriladi. Mevalarda yorilish hollari kuzatilganda kechki sug'orishlar to'xtatiladi. Tez-tez kam miqdorda sug'orilsa o'simlikning vegetativ, aksinchakam-kamdan ko'pmiqdorda sug'orish generativ o'sishga olibkeladi.

Xulosa. Pepino o'simligi o'zida juda ko'plab vitamin va yodga boy bo'lganligi sababli yosh bolalar va homilador ayollarga iste'mol qilishligi tafsiya qilinadi. Tabobatda ham keng qo'llaniladi. Shu sababli ham shu kabi tabiiy vositalarni iste'mol qilish dori vositalaridan ko'ra ancha foydali bo'lgan mahsulotlarni ommalashtirish zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ma’ruza matn “Noananaviy ekinlar seleksiyasi va urug‘chikigi” AQXAI 2023-yil 29-30-b.

2. Egamov X., Abdumalikov U., Zaporov Z., Tillaboev A., Toshpo‘latov A. Yaratilgan yangi g‘o‘za tizimlarining xo‘jalikka foydali belgilarini aniqlash. Innovatsiya: fan, ta’lim, texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqololar to‘plami. Сборник научно методических статей №1. Andijon. 2018 y. 121-123-b.

3. Мирахмедов Ф.Ш., Абдумаликов У.З., Абдумаликов И., Тиллабоев А. Минеральные удобрения и их рациональное применение на орошаемых землях Узбекистана // Интеграционные процессы мирового научно-технологического развития, Белгород, 2017. С. 19-21.

4. Кимсанов И.Х., Кодиров О.А., Рахимов А.Д., Абдумаликов У.З. Изучение морфологических и хозяйственно-сенных признаков новых сортов хлопчатника в условиях андижанского вилоята// Приоритеты инновационно-технологического развития в условиях глобализации, Белгород, 2019. С. 24-27.